

## “O‘zbekiston belgisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanadi

✘ Ma'lumki, har yili milliy ma'naviyat, madaniy meros va umuminsoniy qadriyatlar negizida yuksak vatanparvarlik, xalqparvarlik, fidoyilik tuyg'usini va mehnatsevarlik fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan, Vatanimiz obro'si, shon- shuhrati va sharafini yuksaltirishga hamda uning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilayotgan, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etib namuna ko'rsatayotgan bir guruh yoshlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 22-iyuldagi PF-1822-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan ( Yangi tahrirda 2003-yil 4-avgustda PF-3290-son bilan) “O‘zbekiston belgisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanadi. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2019-yil 7-dekabrdagi № 01-03/64-sonli Qarori bilan O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti boshlang‘ich tashkilot yetakchisi, Respublika yetakchilarining eng faoli **Berdimurodov Akmaljon Azamat o‘g‘li** ushbu yuksak mukofotga loyiq deb topildi. 2020-yil 27-iyun kuni mukofot o'z egalariga topshirildi.



Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti rahbariyati, professor-o'qituvchilari hamda talabalar nomidan **Akmal Berdimurodovni** chin dildan tabriklaymiz. Keyingi o'qish va ishlariga omad tilaymiz.